


### ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2021- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 929,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ga ko‘paydi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-mart

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami</b>	<b>929,2</b>	<b>102,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>68,3</b>	<b>40,2</b>	<b>7,3</b>
Davlat byudjeti mablag‘lari	15,2	58,4	1,6
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	15,1	-	1,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	33,6	-	3,6
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	4,4	3,1	0,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>860,9</b>	<b>116,5</b>	<b>92,7</b>
Korxona o‘z mablag‘lari	167,3	59,7	18,0
Aholi mablag‘lari	241,3	102,2	26,0
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlari	338,8	158,7	36,5

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
--	-------------------	---------------------------------	-------------------------------------


Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari

113,5

74,5

12,2

Umumiy hajmning markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 68,3 mld. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar yoki umumiy hajmning 7,3 % i, shuningdek, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali 860,9 mlrd. so‘m (yoki 92,7%) o‘zlashtirildi.




Korxona mablag‘lari-167,3 mlrd.so‘m

Aholi mablag‘lari-241,3 mlrd. so‘m

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-338,9 mlrd. so‘m


Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-113,5 mlrd. so‘m

## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Hazorasp - 264,4 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 54,9 mlrd. so'm), Xiva shahar - 183,3 % (57,7 mlrd. so'm), Gurlan - 175,9 % (55,4 mlrd. so'm), Qo'shko'pir - 169,4 % (55,9 mlrd. so'm).


## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga ozlashtirilgan investitsiyalar



O'sish sur`ati, % da

Shuningdek, ayrim hududlarda o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi, jumladan Urganch shahrida - 61,8 % (209,0 mlrd. so'm).


## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2021- yilning yanvar-martida 490,1 ming so'm yoki 100,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 1 440,4 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,3 % ni tashkil etdi, Yangiariq tumanida 811,7 ming so'm (yoki 2,6 m.) va Tuproqqal'a tumanida 640,3 ming so'm darajada qayd etildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 299,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 32,2%), ishlab chiqarish sanoati – 130,8 mlrd. so'm (14,1%), qurilish - 32,0 mlrd. so'm (3,4%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 75,2 mlrd. so'm (8,1%), ta'lim - 10,2 mlrd. so'm (1,1%), uy-joy qurilishi - 135,7 mlrd. so'm (14,6%) va boshqa faoliyat turlari – 219,8 mlrd. so'm (23,8%).

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yilning yanvar-mart oylarida 343,3 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 32,7 mln. AQSH doll.), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 158,7 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 74,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi ,shuningdek, 268,4 mlrd. so‘m xorijiy kreditlarga to‘g‘ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 74,9 mlrd. so‘mni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 4,4 mlrd. so‘mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 264,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumaniga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 12,2 % ni ta‘minladi, Urganch shahrida 10,9 %, Bog‘ot tumanida 10,1 % kuzatildi.


## Xorijiy investitsiya va kreditlar

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirishi, mlrd. so‘m</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirishi, nisbatan % da.</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>343,3</b>	<b>268,4</b>	<b>100</b>	<b>36,9</b>

<i>shahar va tumanlar:</i>				
<b>Urganch sh.</b>	37,3	6,8	10,9	17,8
<b>Xiva sh.</b>	27,1	27,1	7,9	46,9
<b>Bog‘ot</b>	34,5	34,5	10,1	43,8
<b>Gurlan</b>	29,0	29,0	8,4	52,3
<b>Qo‘shko‘pir</b>	29,8	28,6	8,7	53,2
<b>Urganch</b>	21,8	21,8	6,4	38,6
<b>Hazorasp</b>	25,2	0,0	7,3	45,9
<b>Tuproqqal‘a</b>	13,7	13,7	4,0	38,3
<b>Xonqa</b>	27,4	27,4	8,0	29,0
<b>Xiva</b>	6,8	6,8	2,0	23,0
<b>Shovot</b>	26,8	26,8	7,8	48,2
<b>Yangiariq</b>	41,8	41,8	12,2	43,9
<b>Yangibozor</b>	22,1	4,1	6,4	43,9

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 36,9 % ni tashkil qildi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (mlrd. so‘m)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,3 % yoki 4,4 mlrd. so‘m, 98,7 % yoki 338,9 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 74,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

**Qurilish-montaj ishlari**

• 68,1%

**Mashina asbob- uskunalar va inventar**

• 25,8%

**Boshqa xarajatlar**

• 6,1%

**Jami investitsiyalar**

100 %



## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlaringning ulushi 68,1%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 25,8%, boshqa xarajatlarning ulushi 6,1% ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas’ul: Sh.Babajanov  
Telefon: (0362) 224-65-22.**